

Axborot manbalari	
1.	www.gow.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2.	www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3.	https://mc.uz/gradostroitelnye-normy/ Shaharsozlik normalari va qoidalari
4.	www.ZiyoNet.uz
5.	www.setkov-psk.perm.ru
6.	www.twirpx.com
7.	Namangan muhandislik - qurilish institutining 2024 yil “___” dagi ___-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: B.Jo'raev - NamMQI, "Bino va inshootlar qurilishi" kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
9.	Taqrizchilar: A.M.Rahimov- NamMQI, "Bino va inshootlar qurilishi" kafedrasi professori, texnika fanlari nomzodi R.X. Pirmatov - TTYMI "Binolar va sanoat inshootlari qurilishi" kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, (turdosh OTM);

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



2024 yil « 3 » 07

SANOAT VA FUQARO BINOLARI ARXITEKTURASI.
FANING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 700000–Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
 Ta'lim sohasi: 730000 – Arxitektura va qurilish
 Bakalavr yo'nalishi: 60730300-Qurilish (bino va inshootlar qurilishi)

Fan/modul kodi SFBA13(4,5)15	O'quv yili 2024-2025 2025-2026	Semestrlar 3, 4, 5	ECTS - Kreditlar 4+6+5=15
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4 / 6 / 5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Sanoat va fuqaro binolari axitekturasi. Qurilish fizikasi	30 m + 30 a 44 m + 46 a 30 m + 45a	60 90 75
2.	1. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda arxitekturaviy bilimlarning nazariy asoslarini, xonalarni mikroiqlimini shakllanish xususiyatlarini, ularni ishonchligini va uzoq muddatga chidamliligini, turar-joy, jamoat va sanoat binolarini amaldagi qurilish me'yorni va qoidalari asosida loyihalashni o'rganish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat bo'lib. talabalarda binolari va inshootlarini loyihalash va ularning konstruktiv elementlari bilan tanishirish, binolarni loyihalashning fizika-texnikaviy asoslari bo'yicha yo'nalish profiliiga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Fanning vazifasi - nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar hosil qilish natijasida bino va inshootlarning o'quv va ishchi loyihalarni tayyorlash va barpo etishda ulardan foydalana olishni, qurilish va konstrukturlar amaliyotida loyihalarni o'qiy olishini, binolarda sodir bo'ladigan fizikaviy jarayonlar va bu jarayonlarning insonga va binoga ta'sirini, binolar mikroiqlimiga me'yoriy talablar va ularni ta'minlashning arxitekturaviy-konstruktiv usullarini, binolarni loyihalashda qurilish hududlarining iqlim parametrlarini hisobga olish va ulardan oqilona foydalana olishni o'rgatishdan iborat.	Jami yuklama (soat) 120 180 150	
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)		
	III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:		
	3-semestr:		
	1-mavzu. Kirish. Bino va inshootlar haqida tushunchalar Fanni o'rganish. Fanning tarixi va rivojlanishi bo'yicha respublikamiz hamda jahon tajribasi. Binolar va inshootlar haqida umumiy ma'lumotlar. Binolarga qo'yilgan asosiy talablar. Binolarning turlari va tasnifi.		
	2-mavzu. Turar - joy binolarining asosiy elementlari Bino va inshootlarning asosiy konstruktiv elementlari, ularning vazifalari va		

ularga qo'yiladigan talablar. Binolarga ta'sir etuvchi kuchlar va ta'sirlar.

3-mavzu. Turar - joy binolarining konstruktiv yechimlari va konstruktiv sxemalari

Binoning konstruktiv yechimlari. Binoning konstruktiv sxemalari. Zilzilaviy xududlarda qurilish talabları. Bino va inshootlarni loyihalashda zamonaviy materiallardan foydalanish imkoniyatlari. Loyiha ishlarini bajarishda kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari haqida umumiy ma'lumot.

4-mavzu. Qurilishni industrlashtirish.

Qurilishni unifikatsiyalash. Tiplarga ajratish. Standartlashtirish. Yagona modul sistemasi. Qurilish xujjalaring tarkibi va ishlab chiqarish bosiqichlari. Devorlar va karkas ustunlarini koordinata o'qlariga bog'lash.

5-mavzu. Loyihalash jarayoni va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Turar joy binolariga qo'yiladigan talablar. Xonodon va uni loyihalash xususiyatlari. Turar-joy binolarining birinchi qavatida joylashtirilgan savdo, madaniy-maishiy xonalar. Konstruktiv yechimlarni texnik-iqtisodiy jihatdan baholash. (90-namunaviy seriyali panelli turar-joy bino konstruksiyalari va ko'zda tutilgan ishlarining loyiha bo'yicha yaxlitlashirilgan smeta narxi ko'rsatkichlari).

6-mavzu. Asoslar to'g'risida tushuncha va ularga qo'yiladigan talablar.

Asoslar to'g'risida umumiy tushunchalar. Asos turlari va ularga qo'yiladigan talablar. Asosni qotirish usullari. Grunti yuklar ta'sirida ishlashi.

7-mavzu. Poydevorlar va ularning konstruktiv yechimlari

Poydevor turlari va ularning konstruktiv yechimlari. Poydevorlarga qo'yiladigan talablar. Poydevorlarning konstruktiv sxemalari. Binoning yer ostki qismini asosiy vazifasi va uni loyihalash. Binoning yer ostki qismini gidroizolyatsiya qilish. Poydevorga ta'sir qiluvchi kuchlar.

8-mavzu. Tashqi devorlar va ularning konstruktiv elementlari

Devor turlari va ularga qo'yilgan asosiy talablar. G'ishtli, mayda blok va tabiiy toshdan terilgan devorlar. Tosh devor detallari. Devorlarning arxitekturaviy konstruktiv elementlari. Binolarni me'moriy-kompozitsiya yechimini boyitadigan muxim konstruktiv devor elementlari balkon, lodja va erkerlar.

9-mavzu. Yirik blokli devorlar. Alovida tayanchlar

Yirik blokli devorlarga qo'yiladigan talablar. Ularning konstruktiv elementlari. Yirik blokli devorlarning ustivorligini ta'minlash. Deformatsiya choklari. Asbestosement quvur va metall tayanchlar

10-mavzu. Zinalar va liftlar

Zinalarning turlari va asosiy konstruktiv elementlari. Zinaxonalar va ularning turlari. Zinalarning konstruktiv yechimlari. Panduslar va ularning konstruktiv yechimlari. Liftlar va ularning konstruktiv elementlari va yechimlari. Lift shaxtalarini turar-joy binolarida joylashtirish sxemalari.

11-mavzu. Qavatlararo yopmalar

Qavatlararo ora yopmalar turlari. Qavatlararo yopmalar va ularga qo'yilgan asosiy talablar. Yog'och to'sinli qavatlararo ora yopmalar va ularning konstruktiv yechimlari. Temirbeton qavatlararo ora yopmalar va ularning konstruktiv yechimlari. Yerto'la usti va chordoq ora yopmalariga qo'yiladigan alohida talablar

12-mavzu. Pollar

Pollarning turlari va ularning tarkibi. Pollarning konstruktiv elementlari. Pollarga qo'yiladigan talablar. Pollarning konstruktiv yechimlari. Turar-joy binolarida qo'llaniladigan pollarga qo'yiladigan talablar. An'anaviy pollarning konstruktiv yechimlari. Zamonaviy "issiq pol" va uning konstruktiv yechimlari.

13-mavzu. Parda devorlar.

Parda devor turlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar. Mayda elementlardan tuzilgan parda devorlarning elementlari va ularning konstruktiv yechimlari va sxemalari. (*Panelli, g'ishtli, toshli, shisha blokli, yog'och taxtali, mayda gips plitali va gips-beton plitalardan parda devor qurish. Karkasli, Yirik panelli, yog'och panelli parda devorning konstruktiv elementlari va sxemalari*).

14-mavzu. Fuqaro binolarining deraza va eshiklari

Derazalarning vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar va konstruksiyalari. Derazalar va ularning zamonaviy konstruktiv yechimlari. Eshiklarning vazifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar va konstruksiyalari. Ichki va tashqi eshiklar va ularning konstruktiv yechimlari. Vitrajlar va vitrinalarni konstruktiv yechimlari.

15-mavzu. Tom yopma va tom to'shmalar.

Binoning tepe qismini yopib turuvehi konstruktiv elementlar. Tomlarga qo'yiladigan asosiy talablar. Nishabli tomilar va ularning konstruksiyalari. Birlashgan (chordoqsiz) tomilar. Birlashgan tomlarning konstruktiv sxemalari. Deformatsiya choklari ustini yopish.

4-semestr:

1-mavzu. Jamoat binolari haqida umumiy ma'lumotlar.

Jamoat binolarni loyihalashning funksional asoslari. Jamoat binolarining tasnifi. Turlari, guruhlari, tiplari. Jamoat binolarining rejaviy sxemalari.

Funktional-texnologik sxemalari. (*Jamoat binolarining asosiy rejaviy elementlari: kirish guruhlari, asosiy xonalar guruhlari, xo'jalik va yordamchi xonalar guruhlari, gorizontal va vertikal kommunikatsiyalar*). Jamoat binolarini loyihalash va qurishda standartlashtirish, unifikatsiyalash va tiplashtirish.

2-mavzu: Jamoat binolariga qo'yiladigan maxsus talablar.

Sanitariya-gigiyena talablari. (*Turar joy, kommunal bo'lim, aholi punktlarini rejalashtirish, qurish, ko'kalamzorlashtirish, suv ta'minoti, chiqindildardan tozalash va kanalizatsiya, turar joy va umumiyo foydalanish ob'yektlari (hammomlar, umumiyo yashash joylari, sartaroshxonalar va dam olish sog'lomlashdirish maskanlari)ni nazorat qilish, atmosfera havosini muhofaza etish, transport va ishlab chiqarish shovqinlariga qarshi kurashish masalalarini hamda atrof muhitni sog'lomlashdirishga qaratilgan amaliy tadbirlar*). Yong'in xavfsizligi talablari. (*Qurilish materiallarning yonish darajasi bo'yicha klassifikasiya. Binolarning uzoq muddatliligi va olovbardoshligi bo'yicha klassifikasiyasini*). Evakuatsiya talablari. (*Odamlarni binodan evakuatsiya qilish. Evakuatsiya yo'llari bo'yicha chegara masofalari*).

3-mavzu. Jamoat binolarining kommunikatsiya xonalarini loyihalash.

Kommunikatsiya xonalari va ularda odamlar xarakati. Odamlar oqimi harakatining parametrlari. Evakuatsiya yo'llarini hisoblash.

4-mavzu. Maktabgacha tarbiya muassasa binolarini loyihalash

Maktabgacha tarbiya muassasalarining hajmiy-rejaviy yechimlari. Maktabgacha tarbiya muassasalarini loyihalashda qo'yiladigan talablar.

5-mavzu. Umumtalim maktab binolari loyihalash

Umumtalim maktab binolarining hajmiy-rejaviy yechimlari. Umumtalim maktab binolarni loyihalashda qo'yiladigan talablar.

6-mavzu. Kasb hunar kollejlari, texnikum binolarini loyihalash

O'rta maxsus ta'lim muassasa binolarni hajmiy-rejaviy yechimlari. O'rta maxsus ta'lim muassasalarini loyihalashda qo'yiladigan talablar.

7-mavzu. Oliy ta'lim va ilmiy tekshirish binolarini loyihalash

Oliy ta'lim muassasa binolarni hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar. Ilmiy tekshirish binolarni hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar.

8-mavzu. Teatr binolarni loyihalash

Teatr binolarning konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar. Bir va ko'p zalli teatr binolarni loyihalash.

9-mavzu. Kinoteatr binolarni loyihalash.

Kinoteatr binolarning konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga

loyihalashda qo'yiladigan talablar.

10-mavzu. Sirk binolarini loyihalash.

Sirk binolarning konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar.

11-mavzu. Muzey binolari va ko'rgazma zallarini loyihalash.

Muzey binolar va ko'rgazmalar zallarining konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar.

12-mavzu. Davolash-profilaktika binolarini loyihalash

Kasalhonalar va poliklinika binolarning konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar. Sanatoriylar, kurort, dam olish va sayyohlik muassasalarining konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar

13-mavzu. Sport inshootlarini loyihalash

Stadionlar, sport pavilionlari. Universal sport zallari, yopiq sport suv xavzalari. Sport inshootlarining yordamchi xonalari. Ularning konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari va ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar.

14-mavzu. Savdo, maishiy xizmat ko'rsatish binolarni loyihalash

Yopiq turdag'i savdo binolari va insootlarining konstruksiyalari. Savdo markazlari va umumiy ovqatlanish muassasalarining konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari hamda ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar. Mexmonxona binolarning konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari hamda ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar.

15-mavzu. Ma'muriy binolarni loyihalash

Ma'muriylarining konstruktiv va hajmiy-rejaviy yechimlari hamda ularga loyihalashda qo'yiladigan talablar.

16-mavzu. Monolit(quyma), yig'ma rigelsiz va karkas panelli binolar.

Yig'ma rigelsiz temir beton bino karkasi. To'sinsiz quyma temir beton ora yopmalar. Yig'ma temir beton ora yopma panellari. Ko'ndalang va bo'ylama yo'nalishda qavatlararo yopmalarni va bikirlik diafragmalarining joylashishi. To'sinsiz karkas elementlarining joylashish sxemalari.

Yuk ko'taruvchi karkasli binolarning qurilishi. Karkasli binolarning zilzila bardoshligi. Karkasli binolarning qo'llanilish sohasi. Karkasli binol uchun poydevorlar loyhalash.

17-mavzu. Yirik blokli binolar.

Yirik bloklardan qurilgan binolarning konstruktiv sxemalari va turlari. Yirik blokli bino sxemalari. Fuqaro binolarida ishlataladigan yirik bloklar turlari. Yirik blokli devor detallari. Yerto'la poydevorlari va devorlari. Bino devorlari yer

ostki qismi.

18-mavzu. Yirik panelli binolar.

Panelli devorlar qirqimini konstruktiv rejalah yacheykasi o'qlari bilan birlashtirish. Uch qatlamlı panellarning egiluvchan bog'lamlari. Namunaviy qavatdagi devor elementlarining joylashish sxemasi. (*Asosiy yuk ko'taruvchi devor panellari 3m, 6m dan ortiq devorlar va kichik panellar orasidagi masofa yopmalami konstruktiv-rejalash asosida loyihalash*). Panelli binolarning tomlari. Yirik panelli binolarda zilzilaga qarshi choklar.

19-mavzu. Hajm-blokli binolar

Zilzilaviy tumanlar uchun hajm-blokli binolar. Hajm-blokli binolaring yerto'la, poydevorlari va devorlari. Hajm-blokli binolaring tomlarini. Tutashish joyini birkiritish. Zilzilaga qarshi choklar. Blok-seksiyaning namunaviy qavatining rejasи. Hajm-blokning montaj vaqtidagi aksanometrik sxemasi.

20-mavzu. Katta oraliqli yassi tom yopma konstruksiyalar.

Stropila to'sinlari, fermalar. Tom yopmalarini temirbeton to'sin yoki fermadan, shuningdek metall fermalardan iborat karkasli binolarning mustahkamligi va ustivorligini aniqlash.

Rasporli yassi konstruksiyalar. Sharnirsiz, ikki sharnirli va uch sharnirli arkalar va ramalar. Yog'och, temirbeton, metall ramalar va arkalarining konstruktiv xususiyatlari.

21-mavzu. Katta oraliqli fazoviy tom yopma konstruksiyalar.

Fazoviy tom yopmalarini rejali va konstruktiv yechimlarining ba'zi xususiyatlari. Katta oraliqli binolarning me'moriy-qurilish qiyofasi. Yupqa devorli fazoviy konstruksiyalar.

22-mavzu. Silindrik qobiqli fazoviy tom yopma konstruksiyalar.

Silindrik qobiqlar. Taxlamalar (skladki). Qubbalar. Gumbazlar. Fazoviy kesishuvchi-sterjenli konstruksiyalar. «Kislovodsk» turidagi strukturalar. Vanta va osma konstruksiyalardan iborat aralash tizimlar va konstruktiv yechimlari.

5-semesrt

1-mavzu. Sanoat binolari haqida umumiyyatli ma'lumotlar

Sanoat binolarning asosiy turlari. Sanoat korxonalari va sanoat qurilishini maqsadi va roli. Sanoat bino va inshootlariga qo'yiladigan asosiy talablar. Sanoat binolarni loyhalash asoslari.

2-mavzu. Tsex ichidagi yuk ko'taruvchi va tashuvchi transportlar

Osma va ko'priksimon kranli binolar. Ko'priksimon kranlar oraliqning

	<p>kattaligi. Ko'priksimon kranosti izi o'qini binoning bo'lувчи o'qiga bog'lash.</p> <p>3-mavzu. Sanoat binolarini industrlashtirish</p> <p>Sanoat binolari va konstruksiylarini bixillashtirish. Sanoat bino va inshootlarining gabarit sxemasi va konstruktiv elementlarini namunaviylashtirish va bixillashtirish. Yagona modul sistemasi va bino parametrlari. Binoning konstruktiv elementlarini rejalash o'qlariga bog'lash. Bir qavatlari binolar ustun va devorlarini ko'ndalang va bo'ylama rejalash o'qlariga bog'lash.</p> <p>4-mavzu. Sanoat binolarini loyihalash asoslari.</p> <p>Sanoat inshootlarini loyihalashning funksional- texnikaviy asoslari. Sanoat binolarining arxitekturaviy yechimi va qurilish sifatini oshirishdagi asosiy talablar. Sanoat bino va inshootlarini loyhalashning umumiy qoidalari.</p> <p>5-mavzu. Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimi, xonalarda havoni almashtirish usullari</p> <p>Xonalarni yoritish usullari va yoritilganlikka qo'yiladigan talablar. Xonalarda havoni almashtirish usullari. Ishlab chiqarish xonalari mikroiqlimi. Ishlab chiqarish binolarida shovqin va titratish (vibratsiya) ga qarshi kurash.</p> <p>6-mavzu. Sanoat binolarining hajmiy-rejaviy yechimi, ishlab chiqarish - texnologik sxemasi</p> <p>Sanoat binolarining hajmiy-rejaviy yechimi. Sanoat binolari qavatini tanlash Ishlab chiqarish – texnologik sxema. Binolarning enini, oraliqlarini, balandligi va ustun(kolonna)larning qadamini tanlash. Sanoat korxonalarining hajmiy – rejaviy va konstruktiv yechimiga ishlab chiqarish texnologiyasi hamda muxitning ta'siri.</p> <p>7-mavzu. Sanoat binolarining bosh rejası</p> <p>Sanoat binolarining bosh rejasiga qo'yiladigan talablar. Ishlab chiqarish korxonalarini joy lashtirish. Sanoat tumanining maydonini tanlash. Korxona bino va inshootlarini joy lashtirish talablari. Sanoat korxonalarini bosh rejasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.</p> <p>8-mavzu. Sanoat korxonalarini ma'muriy – maishiy binolarini loyihalash</p> <p>Sanoat korxonalarini ma'muriy-maishiy binolarini loyihalash. Maishiy binolarning guruxlari. Sanitar maishiy xonalarning tarkibi va ularning hisobi. Garderobler, dushxonalarini loyihalash.</p> <p>9-mavzu. Sanoat binolarining yuk ko'taruvchi konstruksiylari</p> <p>Poydevor va poydevor to'sinlari. Temirbeton ustunlarning asosiy turlari. Temirbeton ustunlar, faxverk va ustunlarni o'zaro bog'lash. Binolar karkasi</p>
--	--

	<p>materiali. Binoga ta'sir etadigan kuchlar.</p> <p>10-mavzu. Bir qavatlari sanoat binolarining karkasi.</p> <p>Bir qavatlari sanoat binolarning po'lat karkasi. Kran osti va bog'lovchi temirbeton to'sinlari. Po'lat ustunlar va ularning bazasi. Faxverk yoki po'lat ustunlar orasidagi bog'lovchilar.</p> <p>11-mavzu. Ko'p qavatlari sanoat binolarining karkasi</p> <p>Ko'p qavatlari sanoat binolari. Ko'p qavatlari sanoat binolarining asosiy parametrlari. Ko'p qavatlari sanoat binolarining konstruktiv yechimlari. Ko'p qavatlari sanoat binolarining devorlari va ularga qo'yiladigan talablar.</p> <p>12-mavzu. Sanoat binolarining yopmalari</p> <p>Tomlar va ularning konstruktiv elementlari. Tom konstruksiylari. Temirbeton stropila osti to'sinlari. Temirbeton ferma va arkalar. Tomlardan atmosfera yog'in suvlarini oqizib yuborish usullari.</p> <p>13-mavzu. Sanoat binolarining tepadan yoritadigan va shamollatish fonarları eshik, deraza va darvozalari.</p> <p>Yuqorida yoritadigan va shamollatish fonarlarining turlari va ularning arxitekturaviy-konstruktiv yechimlari. Eshik, deraza va darvozalarning o'lehamlari, turlari va ularning arxitekturaviy-konstruktiv yechimlari. Sanoat binolarining maxsus (alohipa) konstruktiv elementlari. Poydevor, eshik, darvoza va maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan zinalar.</p> <p>14-mavzu. Sanoat binolarining pollari.</p> <p>Pollarga qo'yiladigan talablar. Pollarning konstruktiv elementlari. Tekis yuzali yopma pollar. Donabay va rulon materialli pollar.</p> <p>15-mavzu. Bir qavatlari va ko'p qavatlari sanoat bino va inshootlarida zilzilaga qarshi choralar.</p> <p>Sanoat binolarining zilzilabardoshligi. Yer silkinadigan xududlardagi qurilishlar. Binolarning zilzilabardoshligi va hajmiy-rejaviy va konstruktiv yechimlarining xususiyatlari.</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar <i>(Mustaqil ta'llim) o'qiw rejada ko'rsatilgan turi (nomi) bo'yicha yo'ziladi</i></p> <p>III.I. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <p>3-semestr:</p> <p>1- mavzu: Turar-joy binolari. Normativ va texnik xujjatlar bilan</p>
--	--

	<p>tanishtirish. Qurilish xududlarining iqlimiylarini tasniflarini aniqlash.</p> <p>2-mavzu: Turar-joy binolarining hajmiy-rejaviy yechimlari sxemalarini ishlab chiqish.</p> <p>3- mavzu: Turar-joy binolari tipologiyasi. Rejaviy qoidalarni o'rganish. Chizmalarda qo'llaniladigan shartli belgilar.</p> <p>4- mavzu: Binolarning asosiy konstruktiv elementlarini tanlash. Reja o'qlariga bog'lash qoidalari</p> <p>5- mavzu: Tasmasimon, ustun osti poydevorlarning konstruktiv elementlari va yechimlari. Tasmasimon, ustun osti poydevorlarning tugunlarini chizish va taxlil qilish.</p> <p>6- mavzu: Qoziqli poydevorlarni konstruktiv elementlari va yechimlari. Tasmasimon, ustun osti poydevorlarning tugunlarini chizish va taxlil qilish.</p> <p>7- mavzu: Tashqi ichki devor va pardevorlarni loyihalash. Balkon, Lodjie va erkerlar. Devorlarni reja o'qlariga bog'lash. Zilzilaviy xududlarda devor konstruksiyalarini tanlash, deformatsiya choklari.</p> <p>8- mavzu: Zinaxonalarining turlari. Zinaxonani rejada loyihalash va qirqimda hisoblash. Zina maydoni va qadamiga qo'yiladigan talablar. Ikki nishabli zinaxona zina elementlarini hisoblash va loyihalash.</p> <p>9- mavzu: To'sinli (<i>yog'och to'sin, metall qo'shtavr to'sin, temirbeton tavr to'sin, temirbeton shveller to'sin</i>) qavatlararo yopmalarning konstruktiv elementlari va yechimlari. To'sinli qavatlararo yopmalarning tugunlarini chizish va taxlil qilish.</p> <p>10-mavzu: Plitali (<i>yaxlit temirbeton plita, ko'p bo'shliqlili temirbeton plita, qovurg'ali temirbeton plita, temir beton yaxlit qoburg'ali, temir beton yaxlit kessonli, quyma to'sinsiz</i>) qavatlararo yopmalarning konstruktiv elementlari va yechimlari. Plitali qavatlararo yopmalarning tugunlarini chizish va taxlil qilish.</p> <p>11-mavzu: Pollar. Ularning turlari va konstruktiv yechimlari. Yerto'la usi va chordoq orayopmalariga qo'yiladigan aloxida talablar. Plita shaklidagi qatlam fibrolit, qamich to'shama, yengil beton, mineral paxta plitalar va boshqalar Pollarning turlari bo'yicha tugunlar chizish va taxlil qilish.</p> <p>12-mavzu: Kam qavatlari turar-joy binolarining tomlari. Tomlarning turlari. Chordoqli tomlarning yuk ko'taruvechi yog'och stropil konstruksiyalari. Stropil binolarining tomlarini konstruktiv elementlari asosida tugunlar chizish va taxlil qilish.</p> <p>13- mavzu: Birlashtirilgan (chordoqsiz, tekis) tomlar. Birlashtirilgan tomlarga ta'sir etuvchi tashqi omillar. Ularga qo'yiladigan fizikaviy-teknik</p>
--	--

	<p>talablar. Ekspluatatsiya qilinadigan birlashtirilgan tomlar. Birlashtirilgan tom tugunlarini chizish va taxlil qilish.</p> <p>14- mavzu: Tom to'shamalar. Tom to'shama sifatida ishlataladigan materiallar. Tomlardan suvlarni chiqarish, havoni almashtirish tizimlari loyihalash. Tom qoplamlarini xosil qilish va tugunlarini chizish.</p> <p>15- mavzu: Turar-joy binolarining bosh rejalarini loyihalashning asosiy xususiyatlari. Shamol guli(поза ветров)ni chizish va binolarning joylashtirish. Bosh rejaning loyihaviy yechimlarni texnik –iqtisodiy baholash</p>
	4-semestr:
	<p>1-mavzu: Jamoat binolariga qo'yiladigan sanitariya va yong'inga qarshi talablar hamda qurilish xududlarining iqlimiylarini aniqlash.</p> <p>2- mavzu: Jamoat binolaridagi xonalar tarkibi va maydonlarini aniqlash.</p>
	<p>3- mavzu: Binolarning funksional-texnologik sxemalarini qurish va hajmiy-rejaviy yechimlar sxemalari komponovkasi.</p>
	<p>4- mavzu: Berilgan topshirriqqa asosan binoning loyihaviy yechimlarni taxlil qilish. Har xil turdag'i binolarni loyihalash uchun me'yorlar bilan tanishish.</p>
	<p>5- mavzu: Zilzilaviy xududlarda binolarni loyihalashning xususiyatlari: rejaviy va konstruktiv choralar. Zilzilaviy xududlarda qurilish konstruksiyalarining birikishi.</p>
	<p>6- mavzu: Jamoat binolarining arxitekturaviy- kompozitsion xususiyatlari. Maktabgacha tarbiya binolarini loyihalash.</p>
	<p>7- mavzu: Jamoat binolarining arxitekturaviy- kompozitsion xususiyatlari. Maktab binolarini loyihalash</p>
	<p>8- mavzu: Jamoat binolarining arxitekturaviy- kompozitsion xususiyatlari. O'rta maxsus binolarini loyihalash</p>
	<p>9- mavzu: Jamoat binolarining arxitekturaviy- kompozitsion xususiyatlari. Oliyta'lim va ilmiy tekshirish binolarini loyihalash</p>
	<p>10- mavzu: Teatr binolarini loyihalash</p>
	<p>11- mavzu: Kinoteatr binolarini loyihalash</p>
	<p>12- mavzu: Konsert zallarini loyihalash.</p>
	<p>13-mavzu: Muzey binolari. ko'rgazma zallarni loyihalash</p>
	<p>14-mavzu: Diniy marosimlar uchun mo'ljalangan binolarni loyihalash.</p>
	<p>15- mavzu: Savdo-sotiq binolarini (Torgovie zdaniya) loyihalash.</p>

16- mavzu: Yopiq bozorlar binolarini loyihalash.

17- mavzu: Yopiq sport inshootlarini loyihalash.

18- mavzu: Monolit(quyma), yig'ma rigelsiz va karkas panelli binolar Konstruktiv elementlarning montaj rejalarini ishlab chiqish.

19- mavzu: Karkasli binolarning konstruktiv elementlarini o'rganish va tugunlarini chizish.

20- mavzu: Karkasli-panelli binolarning to'liq yig'ma tashqi devorlarini bog'lovchi detallar, tutashuv choklari va yorug'lik tushirib turuvchi derazalar va eshiklarni o'rnatib konstruksiyalash.

21- mavzu: Yirik blokli binolarni konstruktiv elementlarini o'rganish va tugunlarini chizish.

22- mavzu: Yirik panelli binolarni konstruktiv elementlarini o'rganish va tugunlarini chizish.

23- mavzu: Hajm-blokli binolarni konstruktiv elementlarini o'rganish va tugunlarini chizish.

5-semestr

1-mavzu: Sanoat binolarning vazifasiga ko'ra turlari. Sanoat binolarning tasnifi

2- mavzu: Sanoat binolarning xajmiy-tarxiy va konstruktiv elemntlarini namunaviylashtirish, bixillashtirish va yagona muvoziqlashtirish sistemalari

3- mavzu: Sanoat binolarning yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruktiv elementlarini bo'luchchi o'q chizilqlariga bog'lash usullari

4- mavzu: Poydevorlar, poydevor to'sinini konstruktiv elementlarini bo'luchchi o'q chizilqlariga bog'lash usullari

5- mavzu: Sanoat binolari ustunlari, faxverk ustunlari, ustunlararo bog'lanishlar ni konstruktiv elementlarini bo'luchchi o'q chizilqlariga bog'lash usullari

6- mavzu: Ko'p qavatlari sanoat binolarini temirbeton ustunlari, belbog' to'sinlari o'q chizilqlariga bog'lash usullari

7- mavzu: Sanoat binolarning devorlari. G'isht va mayda bloklardan terilgan devorlar. Yirik beton bloklardan terilgan devorlar.

8- mavzu: Sanoat binolarning panelli devorlari. Asbosementli materiallardan ishlangan devorlar.

9- mavzu: Sanoat korxonalarining ma'muriy-maishiy binolarini hisoblash.

10- mavzu: Ko'priksimon va osma kranlarning bino o'q chiziqlariga bog'lanish turlari.

11- mavzu: Sanoat binolarining yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruktiv elementlarini reja o'qlariga bog'lash usullari

12- mavzu: Bir qavatlari sanoat binolarining temirbeton konstruktsiyalari

13- mavzu: Bir qavatlari sanoat binolarini loyihalash va qurilishda zilzilaga qarshi choralar

14- mavzu: Ko'p qavatlari sanoat binolari konstruktiv elementlarining zilzilabardoshlik talabi bo'yicha yechimi

15- mavzu: Ko'p qavatlari sanoat binolarining rejasi, bino bo'ylama va ko'ndalang qirqimlari.

16- mavzu: Tomlar va ularning konstruktiv elementlari. Temirbeton to'sinlar.

17- mavzu: Temirbeton ferma va arkalar. Temirbeton storopil osti to'sini. Tomlarni po'latdan to'sin va fermalari.

18-mavzu: Sanoat binolari tomlarining fazoviy ko'taruvchi konstruktsiyalari va ularni konstruktiv elementlarining bog'lanishi

19- mavzu: Sanoat binolari tomyopmalarining turlari va konstruktiv elementlari hamda yechimlari

20- mavzu: Sanoat binolari fonarlarining turlari va konstruktiv elementlari

21-mavzu: Sanoat korxonalarining pollari va ularning konstruktiv elementlari.

22- mavzu: Sanoat binolarning eshik, deraza va zinalari, ularning turlari va konstruktiv elementlari.

23-mavzu: Sanoat binolari bosh rejalarini loyihalashning asosiy xususiyatlari. Loyihaviy yechimlarni texnik -iqtisodiy baholash

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi. mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvoziq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

IV. I. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sanoat va fuqaro binolarini loyihalash uchun iqlimiylar va fizikaviy geologik

- ma'lumotlar
2. Sanoat va fuqaro binolarining hajmiy- rejaviy yechimlarini tahlil qilish
 3. Binolarda qo'llaniladigan zinalar, listlar va chiqindixonalarini loyihalash
 4. Sanoat va fuqaro binolarining asosiy yuk ko'taruvchi konstruktiv elementlarini tahlil qilish
 5. Sanoat va fuqaro binolarida qo'llaniladigan devor turlari va ularga qo'yilgan asosiy talablar
 6. Sanoat va fuqaro binolaridagi yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyalarini solishtirma tavsiisi
 7. Sanoat va fuqaro binolarini zilzilaviy xududlarda qurilishining xususiyatlari
 8. Sanoat va fuqaro binolaridagi qavatlararo yopmalarni tahlil qilish
 9. Sanoat va fuqaro binolaridagi tom yopma va tom to'shamalarni tahlil qilish
 10. Stropilali tomlar va tom qoplamlari
 11. Birlashtirilgan tomlar va tom qoplamlari
 12. Konstruktiv tugunlarni chizish
 13. Jamoat binolarining shaxarsozlikda tutgan o'rni
 14. Jamoat binolarining funktsional yechimlari
 15. O'quv-tarbiyaviy yo'nalishga mo'ljallangan binolar
 16. Tomosha ko'satish bino va inshootlari
 17. Savdo-sotiq bino va inshootlari
 18. Davolash va profilaktika binolari, dam olish maskanlari
 19. Sanoat binolari to'g'risida umumiy ma'lumotlar.
 20. Universal sanoat binolari
 21. Bir qavatli sanoat binolari montaji
 22. Sanoat binosining konstruksiyaviy elementlarini rejalash o'qlariga bog'lash
 23. Karkasi yig'ma temir-beton ramalardan iborat ko'p qavatli sanoat binosining konstruktiv sxemasini ishlab chiqish.
 24. Sanoat binolaridagi ustunlar to'rini rejalashtirish va bino karkasi konstruktiv elementlarining o'chamlarini aniqlash
 25. Sanoat korxonalari yordamchi bino va xonalari
 26. Sanoat binolarida ma'muriy maishiy binolarning o'rni
 27. Sanoat binolari bosh rejasi va ularga qo'yiladigan talablar va texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari
 28. Sanoat va fuqaro binolarini loyihalash va bosh rejaga joylashtirishda shamol yo'nalishini aniqlash
 29. O'zbekiston hududidagi iqlimiylar va fizikaviy geologik ma'lumotlar. Quyosh radiatsiyasi, harorat, namlik va shamol rejimlari. Fizikaviy-geologik ma'lumotlar. O'zbekistondagi rayonlarning klimatik pasportini yaratish.
 30. Qurilish issiqlik texnikasi vazifalari. Bir qatlamlari, ko'p qatlamlari to'siq konstruksiyalarini termik qarshiligini hisoblash. Issiqliq qabul qilish va

- issiqlik berish qarshiliklarini xisoblash.
31. Qurilish yorug'lik texnikasi. Yorug'lik oqimi. Yoritish kuchi. Yorug'lik. Ravshanlik. Yorug'lik texnikasining qonunlari.
 32. Geometrik tabiiy yoritish koeffitsientini analitik yo'l bilan va Danilyuk grafigiga asoslanib hisoblash. Meridian bo'yicha ravshanlikni notejis tarqalishini xisobga oluvchi koeffitsientni aniqlash.
 33. Quyosh koordinatalari, Quyosh graflklari va ularni tuzish prinsiplari. Insolyasiyaning davomiyligini tartibga solish. Zamonaviy tipdag'i quyoshdan himoya vositalari va ularni loyihalash usullari.
 34. Binolarni loyihalashda bir qatlamlari to'siq konstruksiyalarining havo shovqini izolyasiyalash indeksini hisoblash. Qavatlararo yopmalarning zarba shovqinidan izolyatsiyasini xisoblash.
 35. Zal tipidagi xonalari kinoteatr, teatr, ma'ruza zallari, zamonaviy to'yxonalarning reverberatsiya vaqtini hisoblash tartibi, Xonaning hajmi va tovush yutuychi yuzalarining umumiy yig'indisini hisoblash.
 36. Xona va zallarning tabiiy akustikasi. Xonalarda tovush tarqalishi.
 37. To'siq konstruksiyalarining xavo shovqini izolyatsiyasini hisoblash
 38. Qavatlararo yopmalarning zarba shovqinidan izolyatsiyasini hisoblash
 39. Bir qavatlari to'siq konstruksiyalarining xavo shovqini izolyatsiyalash indeksini hisoblash.
 40. Qavatlararo yopmalarning zarba shovqinidan izolyatsiyasini hisoblash.
 41. Yopiq binolarda geometrik akustikaning asoslari.
 42. Ochiq teatrlar akustikasi.
 43. Xonalarni fokus nuqtasini aniqlash.
 44. Zal tipidagi xonalarning akustikasi
 45. Shovqinga qarshi arxitektura va konstruktiv chora tadbirlar.
 46. Shovqinga qarshi ayrim muxandislik tadbirlar.
 47. Xavo shovqinlariga qarshi tadbirlar.
 48. Zarbiy shovqinga qarshi tadbirlar

Eslatma: semestr davomida o'qituvchi tomonidan berilgan variant bo'yicha talabalar topshiriqlarni bajarishi ko'zda tutiladi.

Semestr uchun mustaqil ta'limga ajratilgan soatlar hisobidan talabalar oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorlanadilar.

IV.II. Kurs loyihasini bajarish uchun tavsya etiladigan ko'rsatmalar:

Kurs loyihasining maqsadi talabalarda mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita qurilish ishlab chiqarishi sharoitlariga mos texnik yechimlar qabul qilish, mayda va yirik elementlardan quriladigan turar-joy, jamoat va sanoat binolarini variantlab loyihalashda mutaxassislik bo'yicha bilimlarni

	<p>mustahkamlashdan iborat.</p> <p>Kurs loyihasining tarkibi 3-4 varaq, A2(yoki 2 ta A1) formatda chizma va A4 formatda 20-25 bet tushuntirish xatidan iborat. Kurs loyihasi chizmasida binoning hajmiy – rejaviy yechimlari, bosh reja va zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida variantlab loyihalash asosida kurs loyihasi ishlab chiqiladi.</p> <p><i>Kurs loyihasining namunaviy mavzulari:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Turar-joy binolarini loyihalash: yakka tartibdagi, bloklangan, seksiyali, galereyali va boshqa turdag'i turar-joy binosini loyihalash. 2. Jamoat binolarini loyihalash: maktabgacha tarbiya muassasalari, o'quv ta'lim muassasalari, teatr, kinoteatr, konsert zallari, kutubxona, muzey, ko'rgazma zallari, ma'muriy binolar, diniy ma'rosimlar uchun mo'ljallangan binolar(masjid va cherkovlar) va boshqa turdag'i jamoat binolarini loyihalash. 3. Sanoat binolarini loyihalash: bir va ko'p qavatlari hamda universal sanoat binolarini loyihalash. <p>Kurs loyihasi bajarilishi ko'rsatilgan mayda va yirik o'lchamli elementlardan iborat turar-joy, jamoat va sanoat binolarini O'zbekiston Respublikasining har xil tabiiy iqlimi hududlari uchun va turli xil konstruktiv yechimlardan foydalangan holda loyihalash ko'zda tililgan.</p> <p><i>Kurs loyihasining grafika qismi:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Binoning bosh rejasi, M 1:500; M 1:1000; M 1:2000; M 1:5000; M 1:10000 2. Bino qavatlarining rejalar (birinchi va takrorlanuvchi qavatlardan birining), M 1:100; M 1:200 3. Zina bo'yicha ko'ndalang va (bir qavatlari binolar uchun) bo'ylama qirqimlar, M 1:50; M 1:100 4. Binoning poydevor, orayopma, chordoq yopmasi, stropila va to'shama rejalar, M 1:100; M 1:200; M 1:400; 5. Konstruktiv tugunlar (3-4 ta), M 1:5; M 1:10 yoki M 1:20; 6. Yig'ma temirbeton buyumlari ro'yxati. <p><i>Kurs loyihasining tushuntirish xati qismi</i></p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Loyihani bajarish uchun topshiriq. 2. Kirish. 3. Loyihani bajarish uchun zarur ma'lumotlar. 4. Binoning hajmiy-rejaviy yechimi va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari. 5. Binoning konstruktiv yechimi. 6. Binoning tashqi va ichki pardozi. 7. Tashqi to'siq konstruksiyasining "teplotizik" hisobi.
--	--

	<p>8. Bosh rejaning tavsisi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.</p> <p>9. Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.</p> <p><i>Eslatma:</i> Kurs loyihasini bajarishda (pardadevorlar, qavatlararo yopmalar, osma shifstlar va h.k.lar konstruksiyalarini tanlashda) zamonaviy qurilish materiallari va texnologiyalarini qo'llash tavsija etiladi.</p>
3.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlarining turlari va o'ziga xos hususiyatlari; - turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlariga qo'yiladigan talablar; - turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlarining loyihamiyligi va konstruktiv yechimlarini baholash; - binolarda sodir bo'ladiyan fizikaviy jarayonlar va bu jarayonlarning insonga va binoga ta'siri; - binolar mikroiqlimiga me'yoriy talablar va ularni ta'minlashning arxitekturaviy konstruktiv usullari; - binolarni loyihalashda qurilish hududlarining iqlimi parametrlarini hisobga olish va sanoat va fuqaro binolaring loyihalash normalari va qoidalari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; - turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlarini loyihalash asoslari va ularning konstruktiv elementlarini; - turar-joy, jamoat hamda sanoat bino va inshootlar arxitekturasi fanning mohiyati, tushunchalari va masalalarini; - arxitekturaviy-qurilish loyihalash asoslarni; - loyihalashda namunaviy loyihalardan foydalananish; - turli tipdag'i bino va inshootlarni loyihalash asoslarni bilishi va ulardan foydalana olishi; loyihalash asoslarni bilishi va ulardan foydalana olishi; - turar-joy, jamoat va sanoat binolarni loyihalash; - turli tipdag'i bino va inshootlarni loyihalashda yong'inga va zilzilaga qarshi talablarni e'tiborga olish; - binolarda sodir bo'ladiyan issiqlik massa almashinishi jarayonlarini baholash; - binolarni loyihalashda insolysiya, tabiiy va sun'iy yorug'lik me'yoriy miqdorlarini ta'minlash; - binolar energiya tejamkorligini oshirish; - arxitekturaviy-qurilish loyihalashida issiqlik texnikasi, akustika va yorug'lik texnikasi bo'yicha hisoblashlarni bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar;

	<ul style="list-style-type: none"> - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihamarlar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihamarlar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish hamda kafedra tomonidan tuzilgan komissiya oldida kurs loyihasini himoya qilish, "Nazorati ishlari" shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni muvoffaqiyatlari topshirishi kerak bo'ladi, ya'ni <u>3-semestrda 4 kredit; 4-semestrda 5 kredit+1 kredit; 5-semestrda 4 kredit+1 kredit: 15 kreditga ega bo'ladi</u>. (izoh: fan bo'yicha 2 ta kurs loyihasini bajarish rejalashtirilgan bo'lib (4-va 5- semestrlar), kurs loyihasini bajarganlik va muvaffaqiyatlari himoya qilganlik asosida xar bir kurs loyihasiga 1 kreditdan 2 kreditga ega bo'ladi).</p> <p>Mazkur fandan talabalarni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sod buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi NIZOM asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga semestrlar bo'yicha ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. M.M.Miralimov, S.Sayfiddinov, M.B.Babajanov. Arxitektura. Darslik.-T.: 2016. 316 bet. 2. Sh.R.Mirzaev, M.M. Vaxitov. Me'morchilik: II-qism. Fuqorolik binolari. Darslik.-T.: «Tafakkur», 2010. 256 bet 3. S.Sayfiddinov. Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi. Darslik.- Toshkent: "Dizayn-print" MChJ ning "IJOD-PRESS" nashriyoti. 2019. - b. 4. Архитектурная физика Учеб. для вузов: Спец. Архитектура В.Клишевич, Л.И. Макриенко, И.В. Мигилана и др. Пол ред. Н.В.Оболенского М.: Архитектура-С», 2007. 448 с: ил. 5. Шукuroв, Г. Ш. Исламова Д.Г. Курилиш физикаси. Дарслик. Тошкент. 2013 йил. - 224 бет. 6. Маракаев Р.Ю., Нуретдинов Х.Н., Мирбобоева Д.Х. - «Архитектурный физика». Ўкув кўлланма. Тошкент, 2000 й. 82 бет.

- Qo'shimcha adabiyotlar**
7. Маклакова Т.Г.Нанасова С. М., Шарапенко В.Г Проектирование жилых и общественных зданий / под ред. Т.Г. Маклаковой, М. АСБ, 1998. -400 стр
 8. M.M.Miralimov "Bino va inshootlar arxitekturasi". Darslik.-T.: 2012 y. -184 b
 9. Қамбаров Ҳ.У. Турар-жой биноларининг конструктив элементлари. Ўқув кўлланма. Тошкент. 1992. -130 б.
 10. B.Jo'raev. Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi fanidan o'quv uslubiy majmua. Namangan 2021 y.
 11. Оболенский Н.В. Архитектура и солнце- М.: Стройиздат. 2011 г.
 12. Расчет и проектирование ограждающих конструкции. Справочное пособие, М.: Стройиздач 1990 г.
 13. ҚМҚ 2.01.01-94. Лойихалаш учун иклимий ва физикавий-геологик маълумотлар. Ўзбекистон Республикаси архитектура ва курилиш давлат кўмитаси. Расмий нашр.-Тошкент. 1994 й.
 14. ШНҚ 2.08.01-19 Турар жой бинолари. Ўзбекистон Республикаси курилиш вазирлиги. Расмий нашр,- Тошкент 2019 й.
 15. ШНҚ 2.08.01-09* Жамоат бинолари ва иншоотлари. Ўзбекистон Республикаси архитектура ва курилиш давлат кўмитаси. Расмий нашр,- Тошкент 2011 й.
 16. ШНҚ 2.09.02-19 Саноат бинолари. Ўзбекистон Республикаси курилиш вазирлиги. Расмий нашр,- Тошкент 2019 й.
 17. ШНҚ 2.07.01-03* Шаҳарсозлик. Шаҳар ва кишлок аҳоли пунктлари худудларини ривожлантириш ва курилишини режалаштириш Ўзбекистон Республикаси архитектура ва курилиш давлат кўмитаси. Расмий нашр.- Тошкент 2009 й.
 18. ШНҚ 2.01.02-04 Бинолар ва иншоотларнинг ёнгин хавсизлик. Ўзбекистон Республикаси архитектура ва курилиш давлат кўмитаси. Расмий нашр.- Тошкент 2009 й.
 19. ШНҚ 2.02.01-98 Основания зданий и сооружений. Ўзбекистон Республикаси архитектура ва курилиш давлат кўмитаси. Расмий нашр.- Тошкент 1998 й.
 20. ҚМҚ2.01.03-19 Сейсмик худудларла курилиш. Ўзбекистон Республикаси курилиш вазирлиги. Расмий нашр,- Тошкент 2019 й.
 21. ҚМҚ 2.01.08-98 Шовкиндан химоя. Тошкент. 1998 й.
 22. ҚМҚ 2.01.01-97* Курилиша исеклик техникаси. Тошкент. 2011 й.
 23. ҚМҚ. 2.01.05 98 Табиий ва сунъий ёргулар. Тошкент. 1998 й.